



Bolaliktepa arxeologik yodgorligi

Baxtiyorov Ozodbek Orifjon og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universiteti Tarix fakulteti talabasi.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola Surxondaryo viloyati Angor tumanida joylashgan, milodiy V-VII asrlarga oid muhim arxeologik yodgorlik Bolaliktepaning tarixiy va madaniy ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Bolaliktepa yodgorligining geografik joylashuvi, topografiyasi, arxeologik tadqiqotlar tarixi, madaniy qatlamlari, xronologiyasi va moddiy madaniyatlarini kompleks yondashuv asosida o'rganishdan iboratdir. Maqolada topilgan sopol buyumlar, asboblar, haykalchalar, me'moriy inshootlar va ayniqsa, Termizshohlar davriga xos devoriy rasmlar batafsil tahlil qilinadi. Ayniqsa devoriy rasmlar va topilmalar o'sha davr sa'nati va dunyo qarashini aks ettiradi. Bolaliktepaning mintaqa tarixi, madaniyati va sivilizatsiyasidagi o'rni, shuningdek, uning Markaziy Osiyo ilk o'rta asrlar arxeologiyasidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot mavjud adabiyotlar va arxeologik ma'lumotlarning tanqidiy sinteziga asoslangan bo'lib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbollarni belgilaydi. Bugungi kunda bunday yodgorliklarni asrash va ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masala bo'lib, ular milliy merosni saqlash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Bolaliktepa, Arxeologiya, Surxondaryo, Termizshohlar, Devoriy rasmlar, Ilk o'rta asrlar, Madaniy meros, Sopol buyumlar

Kirish

O'zbekiston hududi qadim zamonlardan buyon insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lib kelgan. Bu yerda ming yillar davomida shakllangan noyob madaniy yodgorliklar mamlakatimiz va jahon tarixi uchun bebaho ahamiyatga egadir. Ayni Shu boyluklarimizdan biri bu Bolaliktepa Arxeologik Yodgorligidir. Surxondaryo viloyati, xususan Angor tumani, o'zining boy arxeologik qatlamlari bilan Markaziy Osiyo tarixining ko'plab sir-asrorlarini o'zida mujassam etgan. Bolaliktepa arxeologik yodgorligi ana shunday noyob ob'ektlardan biri bo'lib, milodiy V-VII asrlarga oid Termizshohlar davrining moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Bolaliktepa yodgorligining mavjud arxeologik



ma'lumotlar asosida keng qamrovli tahlilini taqdim etishdan iboratdir. Bundan tashqari bu merosni keng targ'ib etish va Bolaliktepaning bugungi xolati to'g'risida ma'lumot beramiz. Xususan, yodgorlikning geografik joylashuvi, topografiyasi, uning tadqiqotlar tarixi, topilgan madaniy qatlamlar va moddiy madaniyat izlari, jumladan, sopol buyumlar, asboblar, haykalchalar va me'moriy inshootlarning o'ziga xos xususiyatlari chuqur o'rganiladi. Ayniqsa, devoriy rasmlar kabi san'at asarlarining madaniy va tarixiy kontekstdagi o'rni alohida e'tibor markazida bo'ladi. Maqolada Bolaliktepaning Termizshohlar davri mintaqa tarixi, madaniyati va sivilizatsiyasidagi ahamiyati ko'rib chiqilib, ushbu yodgorlikning kelajakdagi tadqiqot istiqbollari bayon etiladi.

Bolaliktepa yodgorligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi 846-sonli qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, davlat muhofazasiga olingan. Bu uning ilmiy, madaniy va tarixiy qadri naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Mazkur yodgorlikning "Dehqon ittifoqi" MFY, Alisher Navoiy ko'chasida joylashganligi Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasining operativ boshqaruv huquqi ostida ekanligi uning bugungi kundagi holatini belgilovchi muhim omillardir Zero hudud raisi Shuhrat Hidirov "Bolaliktepa" atrofini 9ta xo'jalik o'rab olgani to'g'risida ma'lumot beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bolaliktepa yodgorligini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan arxeologik ishlar va nashrlar soni cheklangan bo'lsada, mavjud ma'lumotlar uning ulkan ilmiy qadrini tasdiqlaydi. Yodgorlik haqidagi dastlabki va eng muhim tadqiqotlar 1953-1955 yillarda arxeolog L. I. Albaum tomonidan olib borilgan qazishma ishlari bilan bog'liqdir. Albaumning bu ishlari Bolaliktepani ilmiy jamoatchilikka tanitishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Uning ekspeditsiyalari natijasida qadimiy qal'aning me'moriy tuzilishi, undagi xonalar, mudofaa inshootlari va topilmalar batafsil o'rganilgan. Zero To'xtash Annayev yodgorlikni o'rganishga kata xissa qo'shgan olimlardan biri hisoblanadi.

Bolaliktepa Termizdan shimolga tomon 30 km masofada joylashgan V-VI asrlarga oid Termizshohlar qal'asining xarobalari hisoblanadi. Uning o'ziga xos tepaliklar bilan nomlanishi ham ushbu hududning geologik-topografik xususiyatlarini aks ettiradi. Qal'a 50x30x10 sm o'lchamdagi xom g'ishtlardan, 30x30x6 metr hajmdagi to'g'ri to'rtburchak shakldagi paxsadan qurilgan asos ustiga barpo etilganligi qayd etilgan. Albaum tadqiqotlari natijasida 16 ta xona aniqlangan bo'lib, ulardan 11 tasi V asrga, qolgan beshtasi esa VI asrga oidligi aniqlangan. Tashqi tomonga qaragan xonalarda



Learning and Sustainable Innovation

mudofaa maqsadida o'q otish teshiklari mavjudligi yodgorlikning harbiy-strategik ahamiyatidan dalolat beradi.[1.B-65.138.]

Qazishmalar davomida topilgan moddiy madaniyat izlari g'oyat xilma-xildir. Jumladan, diametri 1.2 metr va balandligi 60 sm bo'lgan doira shaklidagi loy g'ishtdan yasalgan o'choq qoldiqlari, yonib ketgan bug'doy donalari va o'rik danaklari topilgan. Bu topilmalar qadimiy aholining dehqonchilik va kundalik turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Shuningdek, loydan va shishadan yasalgan idishlar, musiqa asboblari parchalari, bezakli chilim, bezaklar bilan ziynatlangan ipak kiyim qoldiqlari, emizikli ayol tasvirlangan shisha medalon va yog'och qoshiq kabi buyumlar ham topilgan. Bu topilmalar Bolaliktepa aholisining nafaqat dehqonchilik, balki hunarmandchilik, savdo va san'at bilan ham shug'ullanganligini ko'rsatadi.

Bolaliktepa tadqiqotlarining eng muhim yutug'i sifatida bir xonada saqlanib qolgan devoriy rasmlarning topilishi e'tirof etiladi. Ushbu rasmlar to'y marosimini aks ettirgan bo'lib, unda 47 taga yaqin inson figuralari tasvirlangan. Bu devoriy rasmlar Termizshohlar davrining tasviriy san'ati, kiyim-kechaklari, ijtimoiy marosimlari va estetik qarashlari haqida noyob ma'lumotlar beruvchi bebaho manba hisoblanadi. Ularning saqlanishi va ilmiy tahlili mintaqaning ilk o'rta asrlar san'ati rivojini tushunishda muhimdir. Boshqa manbalarda ham Bolaliktepa qal'asining Termizshohlar uchun muhim tayanch punkt bo'lgani va mamlakat moddiy madaniyati me'morchiligida chuqur ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi.

Surxondaryo vohasidagi arxeologik tadqiqotlar nafaqat Bolaliktepa kabi keyingi davr yodgorliklarini, balki undan ancha qadimgi, miloddan avvalgi 2500-1350 yillarga oid Oks sivilizatsiyasini ham o'z ichiga oladi. Germaniya arxeologik tadqiqotlari ushbu sivilizatsiyaning xususiyatlarini, jumladan, Janubiy O'zbekistondagi Sopoli madaniyatini (Sopolitepa, Jarqo'ton, Mo'lali, Bo'ston), Shimoliy Afg'onistondagi Dashtli madaniyatini va Janubiy Turkmanistondagi Namazgoh madaniyatini o'rganishga qaratilgan. Garchi Bolaliktepa Oks sivilizatsiyasining xronologik doirasiga kirmasa-da, bu tadqiqotlar Surxondaryo vohasining arxeologik salohiyati keng qamrovli ekanligini va turli davrlarga oid qatlamlarni o'z ichiga olganligini ko'rsatadi [2.B-27.46]. Bu esa Bolaliktepani mintaqa arxeologik tadqiqotlarining umumiy kontekstiga joylashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda asosan tanqidiy tahlil, sintez va qiyosiy-tarixiy



Learning and Sustainable Innovation

yondashuv metodologiyasi qo‘llanilgan. Tadqiqot Bolaliktepa arxeologik yodgorligi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni, jumladan, L. I. Albaumning qazishma hisobotlari va boshqa olimlarning shu mavzudagi nashrlarini kompleks o‘rganishga asoslanadi. Arxeologik ma'lumotlarni madaniy-tarixiy kontekstda baholash orqali yodgorlikning Termizshohlar davri jamiyati, madaniyati va san'atidagi o‘rni aniqlangan.

Maqolada ko‘p tarmoqli yondashuvdan foydalanilgan bo‘lib, arxeologiya ma'lumotlari san'at tarixi (devoriy rasmlar tahlili), tarixiy geografiya (yodgorlikning joylashuvi va strategik ahamiyati), shuningdek, madaniy merosni boshqarish (davlat muhofazasi ostida ekanligi) kabi sohalar kesimida tahlil qilingan. Mavjud manbalar asosida Bolaliktepa moddiy madaniyatining xronologik va tipologik xususiyatlari umumlashtirilgan. Ayniqsa, devoriy rasmlar kabi noyob topilmalar vizual manba sifatida o‘rganilib, ularning ramziy ma'nolari va ijtimoiy funksiyalari haqida xulosalar chiqarilgan.

Yodgorlik haqida ma'lumotlarning ishonchliligi va ob'ektivligi tamoyillariga rioya qilingan. Barcha faktlar va xulosalar mavjud adabiy manbalariga havolalar bilan tasdiqlangan. Shu bilan birga, ilmiy bahslar va munozaralarga asos bo‘ladigan kam o‘rganilgan jihatlar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot ushbu yodgorlikni mintaqadagi boshqa ilk o‘rta asr yodgorliklari bilan qiyosiy tahlil qilish uchun zamin yaratadi.

Bolaliktepa arxeologik yodgorligi Surxondaryo viloyati hududida joylashgan, milodiy V-VII asrlarga oid Termizshohlar davrining moddiy va ma'naviy madaniyatini aks ettiruvchi noyob ob'ekt hisoblanadi. [3.B-87.110.]L. I. Albaum tomonidan 1953-1955 yillarda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar yodgorlikning me'moriy tuzilishi, undagi xonalarning xususiyatlari, mudofaa inshootlari va keng ko‘lamli moddiy madaniyat topilmalarini ochib berdi. Qal'aning xom g‘ishtdan bunyod etilishi, 16 ta xonadan iboratligi, mudofaa teshiklarining mavjudligi uning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Topilgan sopol va shisha idishlar, musiqa asboblari, bezakli kiyim qoldiqlari, shisha medalon va yog‘och buyumlar ilk o‘rta asrlar aholisining kundalik hayoti, hunarmandchiligi, savdo aloqalari va estetik didi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, to‘y marosimini tasvirlovchi devoriy rasmlarning kashf etilishi Bolaliktepani Markaziy Osiyo san'at tarixi bo‘yicha eng muhim manbalardan biriga aylantirdi. Ushbu rasmlar Termizshohlar davrining tasviriy san'ati, kiyim-kechaklari, ijtimoiy marosimlari va madaniy amaliyotlari haqida noyob vizual dalillarni taqdim etadi. [4.B-79.91]

Bolaliktepa o‘zining strategik joylashuvi va boy topilmalari bilan Termizshohlar



hokimiyatining mintaqadagi kuchini, shuningdek, ilk oʻrta asrlardagi madaniy va ijtimoiy rivojlanish darajasini aks ettiradi. U nafaqat mahalliy Termizshohlar sulolasining moddiy madaniyatini, balki kengroq ma'noda Oʻrta Osiyoning ushbu davrdagi sivilizatsion yutuqlarini ham namoyon etadi. Yodgorlikning davlat muhofazasiga olingani uning milliy madaniy merosdagi ulkan ahamiyatidan dalolatdir.

Devoriy rasmlarni chuqur restavratsiya qilish va ularni zamonaviy texnologiyalar yordamida batafsil hujjatlashtirish, jumladan, 3D modellashtirish orqali kelajak avlodlar uchun saqlab qolish.

Yodgorlikning atrof hududlarida geoskanerlash va georadar usullari yordamida qoʻshimcha tadqiqotlar oʻtkazish orqali qal'a majmuasining toʻliq chegaralarini va undagi boshqa inshootlarni aniqlash.

Topilgan artefaktlarni materialshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilish, ularning tayyorlanish texnologiyalari, kelib chiqishi va mintaqaviy savdo aloqalaridagi oʻrni haqida yangi ma'lumotlar olish.

Bolaliktepa topilmalarini mintaqadagi boshqa ilk oʻrta asr yodgorliklari, masalan, Fayoztepa, Ayritom kabi ob'ektlar bilan qiyosiy oʻrganish orqali madaniy oʻzaro ta'sirlar va mintaqaviy xususiyatlarni aniqlangan.[5.B-89.120.]

Xulosa

“Bolaliktepa Arxeologik yodgorligi” hozirgi kunda oʻz qiyofasini yoqotgan xudud atrofi oʻzlashtirib yuborilgan. Ammo mavzumizda Yodgorligimizning avvalgi qiyofasini ozgina bolsa ham qayta tiklaganimizdan albatta xursandmiz. Har qanday Moddiy merosni asrab avaylashimiz yodgorlikni ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, turizm ob'ekti sifatida rivojlantirish imkoniyatlarini koʻrib chiqish, madaniy merosni targʻib qilish va aholining tarixiy bilimlarni boyitishga hissa qoʻshish Burchimizdir. Arxeolog Toʻxtash Annayevning hissasi kata boʻlgan –u devoriy rasmlar, topilmalar va qadimiy jamiyat hayotini chuqur taxlil qilib tarixiy kontekstni xalqaro ilmiy hamjamiyatga yetgazishda muxim roʻl oʻynagan. Bolaliktepa orqali biz insoniyatning dastlabki ijtimoiy tuzilishi madaniy hayoti maʼnaviy qadriyatlarini anglaymiz.

Bolaliktepa Markaziy Osiyo arxeologiyasi va san'at tarixi uchun bebaho manba boʻlib qolaveradi va kelajakdagi tadqiqotlar uning sirlarini yanada toʻliq ochib berishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- [1] Kohl, Philip L. Markaziy Osiyo Arxeologiyasi: Paleolitdan Temir Davrigacha. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
- [2] Lerner, Judith A. "Balalyk Tepe devoridagi "Qirol"." Qadimgi Sivilizatsiyalar Skifiyadan Sibirgacha, jild. 22, son. 1-2, 2016, bet. 27-46.
- [3] Litvinsky, Boris A. (muharrir). Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi, III jild: Sivilizatsiyalar chorrahasi: milodiy 250 — 750. Paris: UNESCO Publishing, 1996.
- [4] Rtveladze, Edvard V. "Shimoliy Baqtriyaning Arxeologik yodgorliklari (O'zbekistonning Surxondaryo viloyati)." Osiyo Instituti Byulleteni, vol. 15, 2001, pp. 79-91.
- [5] Azarpay, Guitty. Sugd rasmlari: Sharq san'atida tasviriy epos. Berkeley: University of California Press, 1981.
- [6] Internet;www.ru.